

Plastex Uzbekistan - 2025 15-xalqaro yubiley ko'rgazmasining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi

// 23 September 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/plastex-uzbekistan-2025-15-xalqaro-yubiley-ko-rgazmasining-t>



Bugun, 23-sentabr kuni "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazmalar majmuasida Plastex Uzbekistan - 2025 15-xalqaro yubiley ko'rgazmasining tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirida "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati ham ishtirok etdi. 25-sentabrga qadar o'tkaziladigan ko'rgazma joriy yili 10 ta davlatdan 250 dan ortiq kompaniya va brendlarni jalb qilgan holda rekord darajada ishtirokchilarni to'pladi. Ularning qatorida Germaniya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlardan ishtirokchilar ham bor.



2025-yildan boshlab ko'rgazma kengaytirilgan 4P Central Asia (Plastics, Polymers, Packaging, Printing) formatida o'tkazilmoqda. Bu format to'rtta o'zaro bog'liq sohalarni birlashtirib, polimer xom-ashyosidan tortib, qadoqlash, qayta ishlash va bosma mahsulotlarini o'z ichiga olgan to'liq ishlab chiqarish siklini qamrab oladi.

Ko'rgazma doirasida "O'zkimyosanoat" AJ vakillari turli sanoat tarmoqlari uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyali jihozlar, innovatsion turdagi polimer xom-ashyosi, ekologik toza qadoqlash materiallari hamda xalqaro standartlarga javob beradigan tayyor mahsulotlar bilan tanishdilar.



Ayniqsa, energiya tejankor texnologiyalar va polimer chiqindilarini qayta ishlash hamda utilizatsiya qilish sohasidagi ishlanmalar katta qiziqish uyg'otdi. Bu esa barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ayni muddao.

Bunday xalqaro tadbirlarda ishtirok etish kimyo sanoati mutaxassislariga kasbiy ko'nikmalarni kengaytirish, jahon tendensiyalarini kuzatish hamda innovatsion yechimlarni milliy ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati